

XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA ARGO VA JARGONLARNING QIYOSIY-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Jalilova Hilola Jo'rabek qizi

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Lingvistika (xitoy tili) yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Hafizova Muxlisa Abdig'ani qizi

*O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi dotsent v.b.
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada xitoy va o'zbek tillaridagi argo hamda jargon birliklarining sotsiolingvistik tabiati, shakllanish manbalari, struktur modellari, semantik-tematik guruhlari va pragmatik vazifalari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari noadabiy leksika til tizimining chekka qatlami bo'lsa-da, real kommunikatsiyada guruh identifikatsiyasi, baholash, emotsional-ekspressiv ta'sir, iqtisodiylik va sir saqlash kabi muhim funksiyalarni bajarishini ko'rsatadi. Xitoy tilida metaforik kompozitsiya, grafemik innovatsiyalar va qisqartmalar faol bo'lsa, o'zbek tilida o'zlashmalar, gibrid konstruksiyalar hamda bahoviy-og'zaki birliklar ustunlik qiladi. Shuningdek, maqolada argo va jargonlarni tarjima qilishda funksional hamda izohli ekvivalentlashtirishning ahamiyati asoslanadi.

Kalit so'zlar: argo, jargon, sleng, sotsiolekt, xitoy tili, o'zbek tili, qiyosiy tahlil, pragmatika, internet tili, tarjima.

Kirish

Tilning noadabiy qatlamlari bo'lgan argo, jargon va sleng zamonaviy tilshunoslikda tobora dolzarb tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Buning sababi shundaki, bu birliklar adabiy me'yor doirasidan tashqarida joylashgan bo'lsa-da, real muloqotda nihoyatda faol qo'llanadi va nutq egasining ijtimoiy mansubligi, emotsional holati, baholash pozitsiyasi hamda suhbatdosh bilan masofasini ifodalashda muhim rol o'ynaydi [1; 2].

Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, fandomlar va qisqa video platformalar rivoji natijasida noadabiy leksikaning aylanish tezligi oshib, yangi birliklarning paydo bo'lishi va ommalashuvi jadallashdi. Shu sababli argo va jargonlarni faqat 'buzilgan til' sifatida emas, balki dinamik sotsiolingvistik va pragmatik tizim sifatida tahlil qilish zarurati kuchaydi.

Xitoy va o'zbek tillari bu masalada qiziqarli qiyosiy material beradi. Xitoy tilida internetga xos buzzwordlar, metaforik kompozitsiyalar, grafemik qisqartmalar va semantik jihatdan zich birliklar faol bo'lsa, o'zbek tilida yoshlar nutqi, shahar og'zaki muhit, ruscha va inglizcha o'zlashmalar hamda gibrid konstruksiyalar ustunlik qiladi. Ikki til materialini qiyoslash universal kommunikativ mexanizmlarni ham, milliy-madaniy farqlarni ham aniqlash imkonini beradi.

Asosiy qism

Argo va jargon masalasi jahon tilshunosligida turli ilmiy nuqtai nazarlardan o'rganilgan. M. A. K. Halliday anti-til konsepsiyasi orqali yopiq guruhlar nutqining ijtimoiy reallik yaratish xususiyatini ko'rsatgan bo'lsa [1], C. Eble sleng va guruhviy yaqinlik o'rtasidagi aloqani tahlil qilgan [2]. K. Allan va K. Burridge noadabiy leksikaning taqiqlangan, bahoviy va ijtimoiy nazorat bilan bog'liq qatlamlarini yoritgan [3].

M. Adams va J. Coleman ishlarida sleng va jargonning ijtimoiy tabiatini, ularning ommaviy madaniyat, yoshlar nutqi va tarixiy taraqqiyot bilan aloqadorligini ko'rish mumkin [4; 5]. B. K. Dumas va J. Lighter esa slengni aniqlashda faqat shakliy belgi emas, balki auditoriya, vaziyat va funksional yuklama ham hisobga olinishi kerakligini ta'kidlaydi [6].

Xitoy tilshunosligida mavzu asosan internet tili, buzzwordlar, yoshlar slengi va formal-informal birliklar o'rtasidagi munosabat doirasida rivojlangan. Li va Yarowsky xitoycha norasmiy birliklar bilan ularning formal muqobillari orasidagi aloqalarni korpus asosida modellashtirish mumkinligini ko'rsatadi [7]. Y. Liu esa zamonaviy xitoy yoshlar slengiga oid lug'aviy materiallarni tizimlashtiradi [8].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, argo va jargonni qiyosiy o'rganishda uchta yo'nalish muhim: nazariy-ta'rifiy, korpusga tayangan tavsifiy va tarjimaviy-amaliy yondashuv. Mazkur maqolada aynan shu uchala yo'nalish birlashtirilib, xitoy va o'zbek tillaridagi birliklar semantik, struktur va pragmatik nuqtai nazardan solishtiriladi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini sotsiolingvistika, pragmalingvistika, qiyosiy tilshunoslik, leksikologiya va tarjimashunoslik yo'nalishlaridagi ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida argo va jargon birliklarining ijtimoiy-funksional tabiati, ularning shakllanish manbalari, struktur xususiyatlari, semantik guruhlari hamda kommunikativ-pragmatik vazifalarini aniqlashga qaratilgan tavsifiy, qiyosiy, komponent, kontekstual va funksional-pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot materiali sifatida xitoy tilidan 66 ta va o'zbek tilidan 71 ta tanlanma birlik jalb etildi. Ushbu birliklar internet nutqi, yoshlar muhitiga xos leksika, media va fandom birikmalari, ta'lim tizimiga oid jargonlar, IT va biznes muhitidagi birliklar hamda yopiq guruhlarga xos argotizmlarni qamrab oladi. Tanlanma material semantik-tematik guruhlar, struktur modellar va pragmatik yuklama asosida tasniflandi.

Tahlilning ishchi modeli sifatida 'shakllanish manbasi - struktur model - semantik guruh - pragmatik funksiya - tarjimaviy moslik' tamoyili qo'llandi. Mazkur model birliklarning faqat lug'aviy ma'nosini emas, balki ularning qo'llanish muhiti, ijtimoiy mansubligi, bahoviy-ekspressiv xususiyati, guruh identifikatsiyasidagi o'rni va tarjimada ekvivalentlash imkoniyatlarini ham qamrab olishga xizmat qildi. Shuningdek, tanlangan materiallar o'rtasidagi nisbatni umumlashtirish uchun elementar statistik kuzatish usuli ham qo'llandi.

Tahlil natijalari har ikki tilda ham argo va jargon birliklari tilning periferik hodisasi bo'lib qolmay, real kommunikatsiyada faol ishlaydigan funksional qatlam ekanini ko'rsatdi. Ular guruh identifikatsiyasi, baholash, emotsional-ekspressiv ta'sir, sir saqlash, axborotni iqtisodiy ifodalash va diskursni boshqarish kabi vazifalarni bajaradi. Biroq bu umumiylik ichida xitoy va o'zbek materialining ifoda vositalari sezilarli farqlanadi.

Xitoy tilida argo va jargon ko'proq metaforik kompozitsiya, grafemik o'yin, qisqartma, harfiy-abbreviativ model va memetik signal asosida shakllanadi. Masalan, '内卷', '躺平', '摆烂', '吃瓜', '社死', '破防' singari birliklar murakkab ijtimoiy holatlarni nihoyatda ixcham, obrazli va hissiy jihatdan ta'sirchan shaklda ifodalaydi. Bu birliklarning kuchi denotativ ma'no bilan cheklanmay, ular orqali umumiy ijtimoiy tajriba, kayfiyat va auditoriya bilan 'bir kodda gaplashish' imkoniyati yuzaga keladi.

O'zbek tilida esa noadabiy leksikaning muhim qismi o'zlashmalar va gibriddan iborat. 'Like bosmoq', 'ban qilmoq', 'post tashlamoq', 'story qo'yimoq', 'xayp', 'trend' kabi birliklar inglizcha yoki ruscha asos bilan o'zbekcha grammatik moslashuvning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bundan tashqari, 'zo'r', 'gap yo'q', 'bomba', 'tema', 'top' kabi bahoviy birliklar o'zbek yoshlar nutqida ekspressiv va identifikatsion signal vazifasini bajaradi.

Tanlanma korpus bo'yicha xitoy materialida argo birliklar nisbatan ko'proq, o'zbek materialida esa jargon birliklar salmog'i yuqoriroq ekanini kuzatildi. Bu natija xitoy tilida memetik, metaforik va kodlovchi modellar faolroq ekanini, o'zbek tilida esa operatsion, professional va kundalik tezkor muloqotga xizmat qiluvchi birliklar ko'proq tarqalganini ko'rsatadi.

Tarjimaviy nuqtai nazardan qaralganda, argo va jargon birliklarini bir tildan ikkinchisiga ko'chirishda to'g'ridan-to'g'ri lug'aviy moslik yetarli bo'lmaydi. Ko'plab birliklar ortida ma'lum submadaniyat, internet muhitiga xos ishora, guruhiy fon yoki bahoviy rang yashiringan bo'ladi. Shu sababli funksional ekvivalentlashtirish, izohli tarjima, kontekstual moslashtirish va pragmatik kompensatsiya usullari samaraliroq natija beradi. Demak, argo va jargonlar tarjimasida ma'no bilan birga kommunikativ vazifa ham saqlanishi kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, xitoy va o'zbek tillaridagi argo hamda jargon birliklari tilning chekka va ikkilamchi qatlami emas, balki zamonaviy kommunikatsiyaning faol, dinamik va ko'p qatlamli tarkibiy qismi hisoblanadi. Har ikki tilda ham bunday birliklar ijtimoiy mansublikni ko'rsatadi, baholashni ifodalaydi, nutqqa emotsional ta'sir beradi, axborotni ixchamlashtiradi va ayrim hollarda uni yashiradi.

Qiyosiy tahlil xitoy tilida metaforik ixchamlik, grafemik innovatsiya va qisqartma modellari, o'zbek tilida esa o'zlashma, gibriddan konstruksiya hamda bahoviy-og'zaki birliklar ustun ekanini ko'rsatdi. Bu farq ikki tilning struktur xususiyatlari bilan birga, ularning ijtimoiy-madaniy kommunikatsiya maydoni va media tajribasi bilan ham bog'liq.

Mazkur tadqiqot natijalari sotsiolingvistika, xitoy tili leksikologiyasi, tarjimashunoslik, media tili, subtitrlash va ikki tilli lug'at tuzish amaliyotida qo'llanishi mumkin. Kelgusida mavzuni yanada chuqurroq o'rganish uchun kengroq raqamli korpuslar, real dialoglar va multimodal materiallar asosida dinamik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Halliday, M. A. K. *Anti-Languages // American Anthropologist*. - 1976. - Vol. 78, No. 3. - P. 570-584.
2. Eble, C. *Slang and Sociability: In-Group Language Among College Students*. - Chapel Hill: The University of North Carolina Press, 1996. - 240 p.
3. Allan, K., Burrige, K. *Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language*. - Cambridge: Cambridge University Press, 2006. - 303 p.
4. Adams, M. *Slang: The People's Poetry*. - Oxford: Oxford University Press, 2009. - 256 p.
5. Coleman, J. *The Life of Slang*. - Oxford: Oxford University Press, 2012. - 354 p.
6. Dumas, B. K., Lighter, J. *Is Slang a Word for Linguists? // American Speech*. - 1978. - Vol. 53, No. 1. - P. 5-17.

7. Li, Z., Yarowsky, D. Mining and Modeling Relations between Formal and Informal Chinese Phrases from Web Corpora // Proceedings of EMNLP 2008. - Honolulu, 2008. - P. 1031-1040.
8. Liu, Y. A Dictionary of Slang among Chinese Youth. - München: Lincom GmbH, 2016. - 121 p.